



*Sheralieva Xayriniso Abdurahmat qizi  
Qarshiyev Fazliddin Olim o'g'li*

*Termiz davlat pedagogika instituti*

*Pedagogika va ijtimoiy fanlar*

*, Tarix va uni o'qitish metodikasi,, yo'nalishi 201-guruh talabalari*

## **O'ZBEKISTON VA XITOY DAVLATLARI O'Rtasida TA'LIM JARAYONIDAGI O'ZARO ALOQALAR(oliy ta'lif misolida)**

**Annatatsiya :** ushbu maqolada O'zbekiston va Xitoy davlatlari o'rtaidagi aloqalar yani oliy ta'lif jarayonidagi qizg'in munosabatlarni ko'rsatib o'tiladi. Bu qit'a davlat o'rtaida kadrlar almashinuv, talabalar o'rtaida mobillik aloqalari, xalqaro olimpiada musobaqlari va ikki mamlakat aro konferensiyalar shular misolidir.

**Kalit so'z:** Zejiang fan va texnologiyalar universiteti, Lanjou kimyo-fizika, Shinjian kimyo texnologiyalar, Namangan

Ikki mintaqqa xalqlari o'rtaida ko'p tomonlama do'stona va hurmatga asoslangan munosabatlarga guvohlik beruvchi e'tiborga molik voqeа va ma'lumotlar tarixiy manbalarda saqlanib qolgan. Ma'lumki, so'nggi bir necha yillarda O'zbekiston va Xitoy o'rtaida ko'plab yo'nalishlardagi hamkorlik munosabatlari tobora rivoj topmoqda. Xususan aloqalar, ta'lif sohasida ham yangi tarixiy sahifalar yaratilayotgani bunga yaqqol misol bo'la oladi. So'nggi yillarda ko'plab sohalar qatori ikki mintaqqa oliygochlari bilan izchil hamkorlik yo'lga qo'yilmoqda. Birgina Namangan muhandislik-texnologiya instituti tomonidan Xitoyning Vuxan, Donxua, Zejiang fan va texnologiyalar universiteti, Lanjou kimyo-fizika instituti, Shinjian kimyo texnologiyalar institutlari bilan izchil aloqalar o'rnatilgan.<sup>1</sup>

2019 yili Namangan muhandislik-texnologiya institut delegatsiyasi Xitoyning Donxua Hefei, Shenjou universitetlariga tashrif buyurgan Hamkorlik doirasida bugungi kunga qadar Xitoy oliy ta'lif muassasalariga 40 dan ortiq talaba yozgi maktablarga yuborildi, 11 nafar bakalavr bosqichidagi yoshlar xalqaro talabalarning mobillik dasturi asosida talaba almashinuv dasturida ishtirok etdilar. Namangan muhandislik-texnologiya institutining 5 nafar ilmiy tadqiqchilari xalqaro – "Bir makon - bir yo'l" loyihasi doirasida 1 yillik stajirovka dasturlariga qatnashdilar.

Xitoya ilm-fanning rivojlanishi, ta'limga berilgan e'tibor, mazkur davlatning jahon miqyosida munosib o'rinn egallashiga asosiy omil bo'lib kelmoqda. Shu o'rinda so'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lif sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar ham o'zining yuqori samarasini ko'rsatmoqda. Pirovardida, ikki mintaqaning ta'lif yo'nalishida olib borayotgan amaliy faoliyati bir maqsad yo'lida mushtarak ekanligini tasdiqlaydi.

Bosh vazir o'rinosi Aziz Abduhakimov 21 may kuni XXR ta'lif vaziri o'rinosi Tyan Syuetsyun boshchiligidagi Xitoy delegatsiyasini qabul qildi. Tashrifdan maqsad – O'zbekiston va Xitoy o'rtaida ta'lif hamda kadrlarni tayyorlash sohalarida hamkorlik qilishga oid dolzarb masalalarni muhokama qilish. XXR delegatsiyasi tarkibidan XXR ta'lif vazirligi huzuridagi ta'lifni rivojlantirish tadqiqotlar markazi rahbari Cheng Tsridzi va XXRning O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Tszyan Yan o'rinn olgan. Tomonlar O'zbekistonda xitoy tili va XXRda o'zbek tili ta'limi, talabalar va o'qituvchilar almashinuv, Toshkent hamda Samarqand shaharlaridagi Konfutsiy institutlari faoliyatiga doir masalalarni muhokama qilishdi. Shuningdek, O'zbekiston va Xitoy oliy

<sup>1</sup> © 2020 «Yangi O'zbekiston» va «Pravda Vostoka» gazetalari tahririyati DUK 2024-yil 22-yanvar 641-soni



ta'lim muassasalari o'rtaida qo'shma ta'lim dasturlarini tuzish, xitoy va o'zbek tili sinxron tarjimonlarini tayyorlash masalalariga ham to'xtalib o'tildi. Ikki mamlakat oliv ta'lim muassasalari o'rtaida hamkorlikni rivojlantirish va O'zbekistonda Xitoy OTM filiali faoliyatini yo'lga qo'yish imkonini masalasi ko'tarildi. Bundan tashqari, tomonlar xalqaro tashkilotlar, jumladan YuNeSKO bilan ham hamkorlik istiqbollarini muhokama qilishdi.

Davlatlar aro munosabatlardan rivojlana borib o'z natijasini ko'rsatmoqda. Shu davr mobaynida O'zbekistan va Xitoy davlatlari o'rtaida 100dan ortiq xujjatlar imzolandi. raxbarlari o'rtaida oliv ta'lim jarayonidagi qizg'in munosabatlardan xaqida bir necha bor muzokaralar olib borildi.<sup>2</sup>

15 sentyabr kuni Samarqanddagi "Buyuk ipak yo'li" xalqaro turizm markazining Kongress markazida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev va Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpinning muzokaralari bo'lib o'tdi. Uchrashuv avvalida davlat rahbarlari ikki mamlakat o'rtaida diplomatik munosabatlardan o'rnatilganining 30 yilligi va strategik sheriklikning 10 yilligi munosabati bilan bir-birini qutladilar. Prezidentimiz Si Szinpinni uning tashrif arafasida chop etilgan, xalqlarimiz ko'p arslik rishtalar bilan bog'langanini tasdiqlovchi va dasturiy ahamiyatga ega «Xitoy-O'zbekiston munosabatlarning yorqin kelajagini birgalikda barpo etish» sarlavhali mualliflik maqolasi uchun dildan minnatdorlik bildirdi. Xitoy xalqi Si Szinpin rahbarligida (2013 yil sentabrdan) ochilgan Konfutsiy institutlari o'zbekistonliklarni xitoy tili va madaniyati bilan yaqindan tanishtirib kelmoqda. Ushbu institutlarni o'tgan 11 yil davomida Xitoy bilan O'zbekiston do'stligini mustahkamlashga erishayotgan ulkan yutuqlarni qayd etib, Xitoy Kommunistik partiyasining bo'lajak yigirmanchi yalpi majlisi muvaffaqiyatli o'tishini tiladi<sup>3</sup>

Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib Toshkentda (2005 yil mayda) va Samarqand o'qigan 3 mingdan ortiq mutaxassislar bitirib chiqdilar. Bundan tashqari, Xitoy hukumati homiyligida O'zbekiston oliv o'quv yurtlarida xitoy tilini o'qitish bo'yicha zamonaviy markazlar tashkil etildi. Xitoy Markaziy millatlar universitetida (2010 yildan) va Pekin chet tillar universitetida (2012-2013 o'quv yildan) o'zbek tilini o'qitish yo'lga qo'yildi. Xitoyning nufuzli o'quv akademik muassasalaridan biri hisoblangan Shanxay Xalqaro tadqiqotlar universitetida alohida o'zbek tili kafedrasi faoliyat ko'rsatmoqda. 2016 yilning sentabridan Shanxay oliv o'quv yurtida fakultativ dars sifatida o'qitilmoqda. Ikki tomonlama kelishuvga muvofiq va ShHT doirasida XXR hukumati 2012-2013 o'quv yilda o'zbekistonlik 120 talaba va stajorlarga grantlar ajratdi. Konfutsiy nomidagi institut orqali Lanchjou universitetida o'zbekistonlik 50 ga yaqin talaba tahsil olmoqda.<sup>4</sup>

O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o'rtaida aloqalar shu zailda davom etib kelgan. Ta'lim sohasidagi kadrlar masalasiga bu ikki davlat katta e'tibor qaratmoqda. O'ZBEKISTON - XITOY: TARIXIY-MADANIY, ILMIY VA IQTISODIY ALOQALAR RIVOJI »mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari 19-noyabr 2022-yil, Toshkent

<sup>2</sup> <https://m.kun.uz/news/2019/05/22>

<sup>3</sup> © 2024 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti 15.09.2022

<sup>4</sup> O'ZBEKISTON - XITOY: TARIXIY-MADANIY, ILMIY VA IQTISODIY ALOQALAR RIVOJI »mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari 19-noyabr 2022-yil, Toshkent